

УДК: 316.3

GENDER SIFATLARNING REAL VA IDEAL TIMSOLDA BAHOLANISHI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-680-682>

Saribayeva Umida Sattarovna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Psixologiya” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi
[orcid: 0009-0005-7230-7313](https://orcid.org/0009-0005-7230-7313)
umidasaribayevna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsiyatni shakllantiruvchi identifikatsiya jarayonida atrofdagilarning ta'siri, odamlarning baholari va fikrlari shaxsning haqiqiy va ideal “MEN”ning gender sifatlarini baholanishidagi tasavvurlarini shakllanishida muhim o‘rin egallashi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “MEN”, identifikatsiya, gender, sifat, real, ideal, timsol, tasavvur, baho.

Annotation. This article covers information about the influence of others in the process of personality formation, how people's assessments and opinions play an important role in the formation of an individual's ideas about the real and ideal “I” in assessing gender qualities.

Keywords: “I”, personality, gender, quality, real, ideal, embodiment, imagination, assessment.

Аннотация. В данной статье освещаются данные о влиянии окружающих в процессе личностно-формирующей идентичности, о том, как оценки и мнения людей занимают важное место в формировании представлений личности о реальном и идеальном “Я” при оценке гендерных качеств.

Ключевые слова: “Я”, идентичность, пол, качество, реальное, идеальное, воплощение, воображение, оценка.

KIRISH

Bugungi kunda o‘ziga ishonch, muloqotchanlik, psixologik egiluvchanlik, hissiy-irodaviy, emotsional, intellektual rivojlanganlik uquvi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari tarkib topmagan er-xotin nikoh-oila munosabatlariga “uchinchi shaxs aralashuvi” nikoh barqarorligiga tahdid soluvchi omillardan biri sifatida sezilarli ta’sir kuchiga ega bo‘lib qolmoqda. Aytish mumkinki, shaxs o‘z xulq-atvorini atrof-muhit va boshqalar bilan o‘zaro munosabat jarayonida, ijtimoiy meyorlar uslubiga mos shaklda namoyon qiladi.

Nazariy tahlil. Shaxsiyatni shakllantiruvchi identifikatsiya jarayonida atrofdagilarning ta'siri, odamlarning baholari va fikrlari muhim o‘rin tutadi. G.S. Sallivanning shaxsni tushunishga nazariy yondashuvi g‘oyalarida atrofdagilarning baholari ma’lum bir shaxs uchun ahamiyatli, deb qaraladi[1]. Insonlar o‘z xulq-atvorini va xatti-harakatlarini boshqalarning munosabati va bahosiga qarab moslashtirishga moyildirlar. G.S. Sallivanning g‘oyasiga asoslanib, shaxsning


boshqalar bilan o‘zaro munosabat jarayonida namoyon bo‘ladigan xulq-atvori va xatti-harakatlarini baholashga qaratilgan T. Liri tomonidan ishlab chiqilgan test ko‘lami yanada kengaytirildi va sotsiometrik tadqiqotlar kontekstida ishlatishga mo‘ljallandi.

A.A. Krilova va S.A. Manicheva tomonidan gender sifatlarni aniqlashda qo‘llanilgan T. Lirining 128 talik «Shaxsning psixologik portreti» tavsiflovchi savolnomasidan foydalanildi[2]. Tadqiqotning birinchi bosqichida sinaluvchilar avval o‘zlarini haqiqiy “MEN” sifatlarini, ikkinchi bosqichda ideal-orzudagi “MEN” sifatlarini baholashdi. Olingan tadqiqot natijalariga ko‘ra erkaklar o‘zlarini erkaklik xususiyati sifatida aqliy intellekt, emotsional intellekt, axloqiy intellekt shakllanishi zarur, jumladan, o‘z vaqtida jiddiy va to‘g‘ri qaror qabul qila olish, mantiqiylik, mulohazakorlik, intellektual kreativlik, kuchli yetakchilik, jamoada do‘stona munosabatlarni o‘rnata olish, hamkorlik, hamjihatlik, fidoiylik, mas’uliyatlilik, irodalilik, javobgarlik, sobitlilik, faollik, qat’iyatlilik, tezkorlik, mustaqillik, barqarorlik, dovyuraklik, intizomlilik, epchillik, uddaburonlik, tartiblilik, tadbirkorlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik xislatlari shakllangan bo‘lishi zarur deb baholashgan. Ushbu ko‘rsatkichlarning nafaqat ijtimoiy faol ayollar, balki uy bekalari ham o‘zlarida shakllanishi zarurligiga ijobiy qarashgan.

Eksperimental qism. Tadqiqotning birinchi bosqichida sinaluvchilar avval o‘zlarini haqiqiy “MEN” sifatlarini, ikkinchi bosqichda ideal-orzudagi “MEN” sifatlarini baholashdi. Olingan tadqiqot natijalariga ko‘ra, erkaklar o‘zlarini erkaklik xususiyati sifatida aqliy intellekt, emotsional intellekt, axloqiy intellekt shakllanishi zarur deb baholashdi. Ushbu xususiyatlar orasida jiddiy va to‘g‘ri qaror qabul qila olish, mantiqiylik, mulohazakorlik, intellektual kreativlik, kuchli etakchilik, jamoada do‘stona munosabatlar o‘rnata olish, hamkorlik, hamjihatlik, fidoiylik, mas’uliyatlilik, irodalilik, javobgarlik, sobitlilik, faollik, qat’iyatlilik, tezkorlik, mustaqillik, barqarorlik, dovyuraklik, intizomlilik, epchillik, uddaburonlik, tartiblilik, tadbirkorlik, vatanparvarlik va xalqparvarlik xususiyatlari shakllangan bo‘lishi zarurligini baholashgan. Ushbu ko‘rsatkichlarning nafaqat ijtimoiy faol ayollar, balki uy bekalari uchun ham shakllanishi zarur deb hisoblangan.

Shuningdek, «Bo‘ysinuvchanlik» ko‘rsatkich bo‘yicha ayollarning amaldagi o‘zlariga bergan bahosi 8,6 ball o‘rtadan yuqori bo‘lib, an’anaviy munosabatlarda ayollik sifatlarini tarkib topganligini ko‘rsatadi. Ayollarning bahosi ushbu tasdiq bo‘yicha 6,1 ballni tashkil etadi, bu esa orzularida ayollar haqiqiy hayotlariga nisbatan erkinroq, mustaqilroq bo‘lishga intilishlari aniqlangan. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha erkaklar o‘zlariga 6,6 ball, ideal-orzudagi istaklarini esa 4,2 ball baholashgan. Bu natija ijtimoiy va oilaviy munosabatlar, etnomadaniyat xulq-atvor normalari doirasida erkakni bo‘ysunmasligi va yon bermasligi bilan bog‘liq qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Bo‘ysinuvchan va yon beruvchi erkak «kuchsiz, bo‘shang, ilojsiz, nochor» ahvolda tasavvur qilinishi isbotlanadi. «Talabchanlik, qattiqqo‘llik»; “O‘ziga ishonch” ko‘rsatkichlari har ikki jins

vakillari tomonidan yuqori baholangan va zarur sifat deb qaralishini tasdiqlangan, 1-2-rasmi profilda aks ettirilgan.



**Respondentlarning real va ideal “MEN” timsoliga xos xususiyatlarini
rasmda ifodalanishi 1-2-rasm**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ikki jins vakillarining haqiqiy va ideal “MEN”ning gender sifatlarini baholanishidagi tasavvurlarida o‘zlarining va turmush o‘rtog‘ining aqliy, hissiy-psixologik, emotsional, axloqiy, jinsiy, psixofiziologik intellekt darajasini yuqori shakllanganligini istashlari kutilmalari real hayotdagi bahosidan yuqoriligi aniqlandi; Ushbu tasdiqlarlar nafaqat ijtimoiy faol ayollarda, balki uy bekalarining tasavvurlarida ham ijobiy va yuqori baho berilishi va o‘z oilalarida shakllanishi zarurligini istashlari tasdiqlandi. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy me‘yorlar, axborotlar bosimi, atrofdagilarning fikrlari ham er-xotin gender xulq-atvorini, xatti-harakatlarini belgilaydigan asosiy dastur sifatida idrok qilinadigan, o‘zaro munosabatlarini shakllantiruvchi, muloqot, o‘zaro ta’sir usullarini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida shaxsning gender “MEN”ni takomillashtirilishiga o‘ziga xos ravishda ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Практикум по общей экспериментальной и прикладной психологии/под.ред.А.А.Крылова, С.А.Маничева. - СПб.: Питер,2002. - С.497-505.
2. Тимоти Лири, Г. Лефоржем и Р. Сазеком в 1954 году, и в 1957 году опубликованная в монографии Тимоти Лири под названием «The Interpersonal Diagnosis of Personality».